

Ijodkor siyosiga badiiy chizgilar (Xotira-esselar)

Kazakova Gulasal Quralovna

Urganch State University

Annotatsiya: Maqolada xotira-esselarning o`zbek adabiyotidagi o`ziga xos o`rni, tarixiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan adabiyotning boshqa janrlari bilan bevosita aloqadorligi tahlil qilingan

Аннотация: В Статье особое место мемуаров-очерков в узбекской литературе. Анализируется непосредственная связь литературы с другими жанрами с точки зрения исторического развития.

Abstract: In the article, the special place of memoir-essays in Uzbek literature. The direct connection of literature with other genres from the point of view of historical development is analyzed

Kalit so`zlar: xotira-esse, improvizatsiya, falsafiy-estetik esse, adabiy-tanqidiy esse, tarixiy-biografik esse, ijtimoiy-siyosiy esse, badiiy-publitsistik esse, fantastik esse

Ключевые слова: очерк-память, импровизация, философско-эстетический очерк, литературно-критический очерк, историко-биографический очерк, общественно-политический очерк, художественно-публицистический очерк, художественный очерк

Key words: memoir-essays, improvisation, philosophical-aesthetic essay, literary critical essay, historical-biographical essay, social-political essay, artistic-journalistic essay, fictional essay

O`zbek adabiyotida esse janri ko`proq improvizatsiya asosida yuzaga keladigan janr bo`lib, adabiyot tarixi, hozirgi adabiy jarayonning muayyan muammolari, yozuvchi va ijodkorlar ma`naviy dunyosi, biron bir asar yaratilish tarixi, asar mavzusi yuzasidan muhokama va mushohadalar majmuyi hisoblanadi. Esselarni mazmun va tuzilish jihatdan: falsafiy-estetik, adabiy-tanqidiy, tarixiy-biografik, xotira, ijtimoiy-siyosiy, badiiy-publitsistik va fantastik esselarga bo`lib o`rganish mumkin. Adabiyotda esse janri boshqa janrlarga nisbatan keyin paydo bo`lishiga qaramay bu kabi tasniflanishga erishilishi, ijodkorlar aynan shu janrning eng noyob durdonalarini yaratib kelayotganligi, esse janri taraqqiyot cho`qqisini zabt etganligidan dalolat. Bevosita esse janrining keng imkoniyatlari, yozuvchi-

shoirlar, adabiyotshunos olimlarda erkin fikrlash imkoniyatini beruvchi, an'anaviylikdan voz kechib hayotni turli bo'yoqlarda aks ettirish imkoniyatini ham beruvchi janr sifatida maydonga keldi.

Yuqorida tasniflangan esse turlari ichida xotira-esselar o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, tarixiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan adabiyotning boshqa janrlari bilan bevosita aloqadorligi ta'kidlanadi. Esselar dastlab badi'alar tarzda namoyon bo'lar ekan, sharqda Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino risolalaridagi teran muhokamalarga asoslangan ibratomuz bitiklarda ham badiiy xotiralar namoyon bo'ladi.

Keyinchalik Alisher Navoiy yaratgan "Majolis un-nafois" tazkirasi, "Hayrat-ul abror"ning ayrim boblari ("Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy madhi", "Abdurahmon Jomiy madhi", "Husayn Boyqaro madhi", "Badiuzzamon haqida"), "Mahbub-ul qulub" asari, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlari esse janri yuzaga kelishidagi dastlabki namunalar sifatida e'tirof etiladi. Aynan "Boburnoma" esse janrining turfa xil janr unsurlarini o'zida namoyon etgan memuar asardir. Adabiyotshunos S.Umirov "Boburnoma" ilm, badiiyat, maqolanavislik, ocherk, esse xususiyatlarini ajib tarzda mujassam etgan go'zal sinkretik asardir" deya ta'riflagan edi. [5:76] Muallif voqealarga va qahramonlarga o'z nuqtayi nazaridan obyektiv baho beradi. Asardagi voqelik tarixiy zamon va makonda aks ettiriladi. Ana shu memuar jihatiga ko'ra "Boburnoma" sof xotira asardir. Aynan shu asar badiiy, ilmiy, hatto publitsistikaga xos ocherk, yo'l xotirasi, ilmiy mulohaza shaklidagi esse janri unsurlarini ham yaxlit bir butunlikda namoyon etgan. Shu sababdan "Boburnoma"ni esse tipidagi asar deyishimiz mumkin.

Keyinchalik yaratilgan Muqimiy qalamiga mansub "Sayohatnoma" asari ham yo'l xotiralari va avtobiografik yo'nalishdagi asar hisoblanib esse janri taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega. Asarning "Qo'qondan Shohimardonga", "Qo'qondan Farg'onaga", "Qo'qondan Isfaraga" qismlarida ijodkorning qishloqlarga bergan ta'rif-u tavsifi shaxsiy kechinmalar asosida qalamga olingan bo'lib esse yaratilish tamoyillarida ham aynan shu jihat ustunlik qiladi. Ya'ni erkin fikr, rang-barang mavzu, ijodkor ruhiy olami tasviriga qaratilgan voqea-hodisa yoki shaxs haqida shaxsiy mulohaza hamda qarashlarni ifodalovchi bu janr imkoniyatlari shu zaylda taraqqiy etgan va adabiy tanqidchilikda o'ziga xos o'ringa ega.

Hozirgi adabiy jarayondagi xotira-esselar shakllanishida aynan mana shu tarixiy taraqqiyot asosiy bosqichni o'tagan desak bu ayni haqiqat. Ijodkorlar S.Ahmad, Sh.Xolmirzayev, O.Sharafiddinov, I.G'afurov, A.Muxtor, N.Fozilov,

O`Umarbekov, A.Oripovlar o`zining xotira-esselari bilan o`zbek adabiyotini boyitdi. O`zbek xotira-esselarida mashhur shaxslarning hayoti va ijodi, dunyoqarashi, fe`l-atvori, madaniy saviyasi, xarakteri yozuvchi nuqtayi nazari bilan ochiladi. Ayni shu jihat esse yaratish tamoyillariga to`la mos keladi.

O.Sharafiddinovning “Dovondagi o`ylar” kitobidagi “Mustaqillik me`mori” xotira-essesida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug`aniyevich Karimov haqida bo`lib, ilk yo`lboshchimizning siyosat maydoniga kirib kelishidan tortib, istiqlol yillariga qadam qo`yishdan avvalgi xalqning tahlikali va o`ta og`ir turmush sharoiti, moddiy va ma`naviy muammolarni bartaraf qilishdagi byurokratik tizimni parchalashdagi sa`y-harakatlari hamda istiqloldan keyingi bunyodkorlik ishlariga tashabbuskorligi yoritiladi. “Tarixdan ma`lumki, mustaqillikka erishmoq – juda mushkul ish. Lekin uni saqlab qolmoq, istiqlol yo`liga kirgan o`lkani bo`hronlar botqog`idan olib chiqmoq, turli-tuman yovuz kuchlar xurujidan asramoq yanada qiyinroq ekan. Buning uchun yakka niyat va xohishning o`zi kifoya qilmaydi. Bu ish beqiyos fidoyilikni, chinakam qahramonlik va dovyuraklikni, yuksak aql-zakovat, ulkan jismoniy va ma`naviy salohiyatni talab qilgan ekan”. [6:22]

“Mustaqillik me`mori” xotira-essesida O.Sharafiddinov mustaqillik osonlikcha qo`lga kiritilmaganligini ta`kidlar ekan, ilk Prezidentimiz I.A.Karimovni “Istiqlol me`mori” deya ataydi. Uning me`morligi mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beradigan turli xil loyihalarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirishda rahbarlik qilishdan iborat bo`lmaganini, o`z hayotini tahlika ostiga qo`yib bo`lsa ham yurt tinchligini asrashda kamarbasta bo`lganligida, kelajak avlodga esa obod va farovon yurt meros qolishi uchun tinimsiz mehnat, kurash va intilishda ekanligini ta`kidlab o`tadi.

Mamlakat taraqqiyotida iqtisodiy va siyosiy masalalarni hal qilish bilan xalqni to`laqonli farovon hayot kechirishi mumkin deya qo`l qovushtirib o`tirmasdan, insoniyat uchun ruhiyat, ma`naviyat masalalari ham nechog`lik muhim ekanligini nazardan qochirgan emas. Dastlabki qadamlardan ham ma`naviy kamolot masalalarini, milliy qadriyatlarni ko`z qorachig`idek asrash ijtimoiy rivojlanishning eng muhim vazifasi sifatida belgilab berganligini, amalga oshirishning keng ko`lamli va puxta o`ylangan dasturini ishlab chiqqanligini ta`kidlarkan, yurt taraqqiyotini har narsadan aziz bilgan bu insonning naqadar zahmatli bir ish boshida ekanligini qalban tushunishi haqida yozadi. Elimizga mana shu insondek fidoyi o`g`il-qizlar kerakligini alohida ta`kidlaydi.

Asarning “Dovondagi o`ylar” qismida mustaqillikning eng ulug` ne`mat ekanligini, istiqlol shabadalari xalqimiz taqdirida yaraqlagan bir mohtob ekanligi

haqida o`y-fikrlarini qog`ozga tushirar ekan, ijodkor o`z tasavvurida xalqining abadiy farovon hayot kechirishi, insonlar orasida zulm-zo`ravonlik, vijdotsizlik, poraxo`rlik, munofiqlik illatlari tag-tomiri bilan bartaraf qilinishi zarurligi haqida alohida to`xtaladi. Shundagina biz istagan mustaqillik abadiy yashashi haqida kuyunchaklik bilan fikr bildiradi.

“Muhabbat kunda kerak...” xotirasida esa Ozod Sharafiddinov mehnat va zahmatlarga to`la hayot yo`lida yo`ldoshlik qilgan turmush o`rtog`i, farzandlari va yaqin insonlari haqida yozarkan, muhabbatning oliy tuyg`u ekanligi, oiladek mustahkam qo`rg`on barpo etilishida uning roli beqiyos ekanligini, haqiqiy muhabbatni inson hamisha e`zozlay bilishi lozimligini aytadi. “Qars ikki qo`ldan” essesinde esa ijodkor oilaviy masalalarni hal qilish har doim dolzarbligi, yoshlarga har jihatdan o`rnak bo`lish lozimligi haqida ham ko`pgina hayotiy misollarni keltirib o`tadi.

Ozod Sharafiddinovning asarlari ichida xotira-esselar uning ijodining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Shunday ekan ijodkor o`y-fikrlarini umumlashtirgan holda hayot saboqlari haqida teran mushohada yuritishi, turmush chigalliklarini bartaraf qilishda teran nigohlarda hayot haqiqatini anglab yetish darkorligini ko`p bora tilga oladi. Bu ayni Ozod Sharafiddinovga xos o`zgachalik, hech kimga o`xshamas iste`dod egasi ekanligida deya atash mumkin bo`ladi.

Iste`dodli yozuvchi Nosir Fozilovning “Topdim-u yoqotmadim” xotiralar kitobida ham buyuk so`z ustalari, ijodkor va yozuvchilar ibratli hayot yo`llari haqida eslab o`tiladi. “Azizim” (O`lmas Umarbekov haqida), “Ta`zim” (ustozi Hamid G`ulom haqida), “Mulla Shukur” (Shukur Xolmirzayev haqida), “Ukadek aziz, do`stdek qadrdon edi” (Tog`ay Murod haqida), “Yaxshilarga yondashib” (Sobit Muqonov haqida), “She`riy maktub” (G`.G`ulom haqida), “O`zlaridan so`rasak” (M.Shayxzoda haqida), “Kenglik” (Oybek haqida), “Tanishuv” (A.Qahhor haqida), “Uchqo`rg`on” (S.Ahmad haqida) nomli esselarida atoqli o`zbek va qardosh xalqlar adiblari va ularning ijodi haqidagi adabiy portretlar jamlangan. Shu o`rinda adabiyotshunos A.Rasulovning adabiy portret janrining nazariy belgilari haqidagi quyidagi fikrlarini eslash joiz: “Adabiy portret janri tanqidchidan, yozuvchi hayoti va ijodiga oid materiallarni mukammal o`zlashtirishdan tashqari, teran zamonaviy nazariy bilimi, davr va adabiyot taraqqiyotida bosh tamoyillarni nozik anglashni, xarakteri yaratilayotgan san`atkorga nisbatan aniq munosabatda bo`lishni taqozo etadi” [13:68]. Ijodkorning ushbu nazariy qarashlari N.Fozilovning “Topdim-u yo`qotmadim” xotira kitobida to`laqonli o`z aksini topgan. Boisi yozuvchi qo`l urishi lozim

mavzu yuzasidan atroflicha emas, balki to`la-to`kis ma`lumotga ega holda har bir buyuk ijodkor siymosini so`z bilan oqqa ko`chirgan.

Kitobning “Ijod zahmati” qismida esa ijodkor o`zi, yaqinlari, umri davomida unga ijod sirlarini yuqtirishda ko`makdosh qadrdonlari, o`zining tarjimonlik faoliyati va bolalar adabiyotidagi o`ziga xos asarlari yaratilishi tarixi haqida to`xtalib o`tadi. “Men qishloq bolasiman. Birinchi hikoyamdan to hozirgi kungacha yozgan asarlarimning bosh qahramoni o`zim, bolaligim, qishlog`im. “Irmoq” muqovasiga chizilgan sariqqina bola – men, uloqchalar – mening suruvlarim, qishloq, tepaliklar, daraxtlar – tug`ilgan qishlog`im. Men tabiatni shu yerda tanidim, sevib qoldim, hali hanuz sog`inchi bilan yashayman...” [7:269]. Aynan shu satrlar ijodkorning boshqalardan ayro xususiyati, ya`ni samimiylilik va soddadillik umri kabi ijodining ham doimiy hamrohi ekanligidan dalolatdir.

O`zbek adabiyotida esse janri badiiy ijod va ijodkor siymosi tahlilini to`laqonli namoyon qiluvchi adabiy janr hisoblanadi. Esselarning ijodkor yoki buyuk shaxslar hayot va ijod yo`li haqidagi adabiy o`ylar, tasvirlanayotgan voqea-hodisa yoki shaxs siymosi badiiy portretini gavdalanitirish maqsadida yaratilgan xotira-esselar ijodkorning zahmatli mehnati asosida yuzaga keluvchi xazinadir. Xotira-esselarni o`qish orqali biz tasvirlanayotgan shaxsning insoniy xislatlarini yanada chuqurroq anglab yetamiz. Voqea haqida esa batafsil ma`lumot olamiz. Buyuk daholarning ijodiy kamolotini yuzaga chiqargan shaxsiy xislatlari, boshqalardan farqlantiruvchi jihatlarini yaqqol ko`ra olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Ahmedova “O`zbek adabiy tanqidchiligi tarixi” T.: 2012
2. O.Sharafiddinov. “Ijodni anglash baxti”. T.: 2004
3. O.Sharafiddinov. “Iste`dod jilolari” T.: 1976
4. O.Sharafiddinov. “Talant – xalq mulki”. T.: 1979
5. S.Umirov. “Boburnoma” – badiiy maqolanavislikning go`zal namunasi. Jahon adabiyoti jurnali. 2003. № 2. 76-79.
6. O.Sharafiddinov. “Dovondagi o`ylar”. T.: 2004
7. N.Fozilov. “Topdim-u yo`qotmadim”. T.: 2010.
8. U.Normatov. “Ijod va shijoat”. T.: 2006.
9. M.Qo`shjonov. “Mahorat sirlari”. T.: 1968
10. M.Qo`shjonov. “Hayot va nafasat”. T.: 1970.
11. A.Rasulov. Iste`dod va e`tiqod. T.2000.
12. M.Qo`chqorova. “Badiiy so`z va ruhiyat manzaralari”. T.: 2011